

## OG’RIQ QOLDIRUVCHI DORI VOSTIASINING USTUNLIKLARI

**Iskandarov Nurmamat Samandarovich**

*Shifokor-82 AJ korxonasining Direktori va Aksiyadori*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada og’riq qoldiruvchi dori vositalarining afzalliklarini tahlil qilinadi va ularning og’riqni samarali bartaraf etishi, hayot sifatini yaxshilashi, davolash jarayonini osonlashtirishi hamda turli shakllarda mavjudligi kabi ustunliklarini ochib beriladi. Shuningdek, dorilarni qo’llashda ehtiyyot bo’lish, nojo’ya ta’sirlari, miqdorini oshirib yuborish xavfi va qaramlik kabi masalalar haqida so`z boradi.*

**Kalit so’zi;** *Dori, paradik, tabletka, og’riq, jarayon, xayf, kasalliklar, zamon, muammo, ta’sir korsatish, inson omillar, sifat, yallig’lanish.*

**Аннотация:** В этой статье анализируются преимущества обезболивающих и раскрываются их преимущества, такие как их способность эффективно снимать боль, улучшать качество жизни, облегчать процесс заживления, а также их доступность в различных формах. Также упоминаются такие вопросы, как осторожность при использовании лекарств, побочные эффекты, риск передозировки и зависимости.

**Ключевое слово;** *Лекарство, парадик, таблетка, боль, процесс, риск, болезни, время, проблема, воздействие, человек факторы, качество, воспаление.*

**Annotation:** *this article analyzes the benefits of painkillers and reveals their advantages such as effective pain relief, improving quality of life, facilitating the healing process and being available in various forms. Issues such as caution in the use of medications, side effects, risk of overdose, and dependence are also discussed.*

**Keyword;** *medication, paradik, pill, pain, process, risk, diseases, time, problem, exposure, human factors, quality, inflammation.*

Hozirgi kunda vaqtiga bilan paydo bo’ladigan og’riq muammolari tobora dolzarb bo’lib bormoqda. Har kuni biz turli xil noqulayliklarga duch kelamiz. Bosh og’rig’i va tish og’rig’idan boshlab, mushaklar va bo’g’imlarda yoqimsiz hislar bilan tugaydi. Og’riq bilan kurashishning ko’plab usullari mavjud bo’lsa-da, eng samarali va arzonlaridan biri og’riq qoldiruvchi tabletkalardir.

Og’riq - bu inson hayotining ajralmas qismi bo’lib, turli sabablarga ko’ra yuzaga kelishi mumkin. Og’riq – o’ta kuchli yoki yemiruvchi ta’sirlovchilarga javoban organizmda ro’y beradigan noxush fiziologik jarayon, organizmning himoyalish reaksiyasi. Og’riq butun organizm yoki organlar funksiyasining buzilganligi haqida, kasallik to‘g’risida ogohlantiradi, uni aniklashga va to‘g’ri davolashga imkon beradi. Shu bilan birga Og’riq sezgi hissiy kechinma sifatida kishini ezadi, unga orom va uyqu bermaydi, ish qobiliyatini pasaytiradi va boshqa Og’riq haddan tashqari kuchli bo’lsa, shok ro’y berishi mumkin. Og’riq ko’proq ta’sirlovchining kuchiga bog’liq. Agar teri, shilliq pardalari, suyak usti pardasi qattiq shikastangan bo’lsa, Og’riq kuchli bo’ladi. Ichak funksiyasidagi ozgina

buzilishlar kuchli Og’riqqa sabab bo‘lishi yoki, aksincha, bosh miya, buyrakning jiddiy zararlanishlari og’riqsiz o’tishi mumkin. Og’rituvchi ta’sirotga javoban organizmda bir qancha o‘zgarishlar ro‘y beradi;

- qon tomirlari torayadi,
- qon bosimi ko’tariladi,
- qonning ivish xossasi oshadi,
- qondagi qand miqdori ko‘payadi.

Og’riq har doim kutilmaganda paydo bo’ladi va ko’pincha tanadagi patologik jarayonlarni ko’rsatadi. Ba’zi hollarda, og’riqlar yengil shikastlanish tufayli yuzaga kelganda dori-darmonlar talab qilinmaydi. Ba’zi hollarda esa kuchli og’riqlar yuzaga kelib dori-darmon ichish talab qilinadi.

Zamonaviy tibbiyotda og’riqni bartaraf etishning samarali usullaridan biri og’riq qoldiruvchi dori vositalaridan foydalanishdir.

Ushbu maqola og’riq qoldiruvchi dorilarning afzalliklarini, ularning og’riqni kamaytirish, hayot sifatini yaxshilash va davolash jarayonini osonlashtirishdagi rolini ko’rib chiqadi.

Og’riqni qoldiruvchi dorilar ichida xozirda mashhur tabletkalar ham mavjud misol uchun Paradik tabletkasini aytishimiz mumkun. Paradik tabletkasining tarkibi: paracetamol - 500 mg, diklofenak natriy 50 mg va bu dorini siz och qoringa ham qabul qilishingiz mumkun bo’ladi. Odatda och qoringa og’riqni qoldiruvchi dori vositalarini iste’mol qilish oshqozonga zarar yetkazishi mumkun. Ammo Hindistonda ishlab chiqarilayotgan bu dori vositasini qabul qilganda uch qavat qobiq bilan o’ralganligi hamda boshqa dorilarda yo’q noyob Natriya Benzoat qo’shimchasi borligi uchun oshqozonga yetib borib oshqozonda erimasdan o’n ikki ichak barmoqqa o’tib erishi sababli oshqozonga shikast yetkazmaslik xususiyatiga ega. Hozirgi kunda Avantikaning O’zbekistondagi Shifokor-82 AJ korxonasi bilan hamkorligi Sog’liqni saqlash vazirligi tomonidan ko’p etirof etilmoqda va bir qancha dorilari xalqning ishonchiga kirgan va Brend darajasiga yetgan. 2022 va 2023-yillarda O’zbekiston Respublikasi Raqobatni Rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo’mitasi tomonidan o’tkazilgan tanlovda O’zbekiston iste’molchilarining ovoz berishi natijasida “Farmatsevtik kompaniyalar va preparatlar” nominatsiyada ikki karra g’olib bo’lgan.

Og’riq qoldiruvchi dori vositalarining asosiy ustunliklari:

1. Og’riqni samarali bartaraf etish:

- Tez ta’sir etish: Ko’pgina og’riq qoldiruvchi dorilar og’riqni tezda kamaytiradi, bu esa odamlarga kundalik faoliyatlarini davom ettirishga imkon beradi. Turli xil og’riq qoldiruvchi dorilar og’riqning turli xil turlarini davolash uchun mo’ljallangan, masalan, nosteroid yallig’lanishga qarshi dorilar yallig’lanishni kamaytiradi va og’riqni bartaraf etadi, opioidlar esa kuchli og’riqni davolash uchun ishlataladi.

2. Hayot sifatini yaxshilash:

- Kundalik faoliyatlarni bajarish: Og’riq qoldiruvchi dorilar og’riqni kamaytirib, odamlarga kundalik faoliyatlarni, masalan, ishslash, uqlash, ovqatlanish va mashq qilishni

osonlashtiradi. Og’riq qoldiruvchi dorilar og’riqni kamaytirib, odamlarning his-tuyg’ularini yaxshilaydi, depressiya, tashvish va asabiylikni kamaytiradi.

3. Davolash jarayonini osonlashtirish:

- Operatsiyadan keyingi davrda yordam: Og’riq qoldiruvchi dorilar operatsiyadan keyingi og’riqni kamaytiradi, bu esa bemorlarning tezroq tuzalib ketishiga yordam beradi. Og’riq qoldiruvchi dorilar surunkali kasalliklar (masalan, artrit, diabetik nevropatiya) bilan bog’liq og’riqni kamaytiradi, bu esa bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi.

4. Turli xil shakllarda mavjudligi:

- Tabletkalar, kapsulalar, suyuqliklar, kremlar va in’ektsiyalar: Og’riq qoldiruvchi dorilar turli xil shakllarda mavjud, bu esa odamlarga o’z ehtiyojlariga va afzalliklariga mos keladigan shaklni tanlash imkoniyatini beradi.

Retseptsiz va retsept bo'yicha dorilar: Ba'zi og'riq qoldiruvchi dorilar (masalan, ibuprofen, paracetamol) retseptsiz sotiladi, bu esa odamlarga ularni shifokorga murojaat qilmasdan olish imkoniyatini beradi. Boshqa og'riq qoldiruvchi dorilar (masalan, opioidlar) retsept bo'yicha sotiladi, chunki ular kuchliroq va nojo'ya ta'sirlari xavfi yuqori.



Og’riq qoldiruvchi dori vositalarini qo’llashda ehtiyyot choralar:

Og’riq qoldiruvchi dorilar ko’p afzalliklarga ega bo’lishiga qaramay, ularni qo’llashda ehtiyyot bo’lish kerak.

Nojo'ya ta'sirlar: Og’riq qoldiruvchi dorilar turli xil nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, oshqozon buzilishi, uyquchanlik, bosh aylanishi va qabziyat. Opioidlar qaramlik, nafas olishning sekinlashishi va o’limga olib kelishi mumkin.

Dozani oshirib yuborish: Og’riq qoldiruvchi dorilarning dozasini oshirib yuborish jiddiy sog’liq muammolariga, hatto o’limga olib kelishi mumkin.

Boshqa dorilar bilan o’zaro ta’siri: Og’riq qoldiruvchi dorilar boshqa dorilar bilan o’zaro ta’sir qilishi mumkin, bu esa nojo'ya ta'sirlarni kuchaytirishi yoki dorilarning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Qaramlik: Opioidlar qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun ularni faqat shifokorning ko’rsatmasi bilan va qisqa muddatga qo’llash kerak.

Homiladorlik va emizish: Homilador va emizikli ayollar og’riq qoldiruvchi dorilarni qo’llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashishlari kerak, chunki ba’zi dorilar homila yoki chaqaloq uchun zararli bo’lishi mumkin.

### XULOSA

Og’riq qoldiruvchi dorilar og’riqni kamaytirish va hayot sifatini yaxshilash uchun muhim dori-darmonlardir. Biroq, ularni qo’llashda ehtiyyot bo’lish kerak va nojo’ya ta’sirlar, doza oshirib yuborish, boshqa dorilar bilan o’zaro ta’siri va qaramlik xavfi haqida xabardor bo’lish kerak. Og’riq qoldiruvchi tabletkalarni xavfsiz iste’mol qilish ko’plab omillarga bog’liq, jumladan, dori turi, dozasi, qabul qilish muddati, umumiyl salomatlik va har qanday tibbiy muammolar mavjudligi. Har qanday dori-darmonlarni faqat shifokor ko’rsatmasi va paketdagi ko’rsatmalarga muvofiq qabul qilish tavsiya etiladi. Odatda, og’riq qoldiruvchi vositalarning aksariyati uchun maksimal sutkalik doza 4000 mg ni tashkil qiladi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, hatto eng samarali og’riq qoldiruvchi vositalardan uzoq muddatli va nazoratsiz foydalanish jiddiy yon ta’sirga, shu jumladan jigar, buyrak, oshqozon va yurakka zarar etkazishi mumkin. Shuning uchun, agar siz uzoq muddatli yoki takroriy og’riqlarga duch kelsangiz, og’riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilishdan ko’ra, og’riqning asosiy sababini aniqlash va davolash uchun shifokorga murojaat qilish muhimdir.